

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№10**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 121 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....                                                | 13  |
| Muxiddin Kalonov                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....                                 | 19  |
| Quliyev Begimqul Melikovich                                                                                      |     |
| SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....         | 24  |
| Sabirova Oysuluv Shonazarovna                                                                                    |     |
| KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI .....                                    | 30  |
| Musayeva Shoirazimovna                                                                                           |     |
| IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....                    | 35  |
| Alabayev Sobitxon                                                                                                |     |
| MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....                                             | 40  |
| Zakirov Ansabxon Akaidinovich                                                                                    |     |
| ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....                                                        | 48  |
| Саидахмедова Аида Мирзаевна                                                                                      |     |
| KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH .....                                         | 55  |
| Mirzayev Ozod Furkatovich                                                                                        |     |
| AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....       | 59  |
| Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                                     |     |
| BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....             | 64  |
| Yuldashev Adhamjon Axadjonovich                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....                                | 69  |
| Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li                                                                               |     |
| МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА .....                                   | 73  |
| Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович                                                             |     |
| ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО .....    | 78  |
| Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна                                                                               |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI .....                             | 84  |
| Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li                                                                              |     |
| TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....                                  | 90  |
| Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR .....                  | 96  |
| Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li                                                                               |     |
| YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....                           | 102 |
| Allayarov Suxrob Rustamovich                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSİYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI ..... | 107 |
| Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna                                                       |     |



|                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI<br>OMILLARI..... | 114 |
| Durumov Temur G'olibovich                                                               |     |



# HUDUDIY IJTIMOYIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI

**Durumov Temur G'olibovich**

Urganch davlat universiteti doktranti

[durumovt@gmail.com](mailto:durumovt@gmail.com)

[temur.durumov@urdu.uz](mailto:temur.durumov@urdu.uz)

<https://orcid.org/0009-0002-9447-2908>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xorazm viloyatida ijtimoiy rivojlanish, qashshoqlikni kamaytirish va inklyuzivlikni ta'minlashda mehnat resurslari va ularning samarali ishlatilishiga oid omillar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro metodologiyalar, xususan Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) KILM ko'rsatkichlari, ARIMA prognoz modeli hamda Pissaridesning mehnat bozori moslik modeli asosida hududiy mehnat bozorining tuzilmasi va rivojlanish dinamikasi o'rganilgan. 2024-yilda muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalarda asosida ishsizlik, vaqtincha bandlik, rekruter agentliklar faoliyati va inklyuzivlik omillari aniqlanib, Xorazm viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ijtimoiy tenglik va qashshoqlikni yumshatishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada siyosiy takliflar ham ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat resurslari, qashshoqlik, inklyuzivlik, mintaqaviy rivojlanish, vaqtincha bandlik, KILM.

**Abstract:** This article presents a systematic analysis of the factors related to the effective utilization of labor resources in ensuring social development, poverty reduction, and inclusiveness in the Khorezm region. The study applies international methodological approaches, including the Key Indicators of the Labour Market (KILM) developed by the International Labour Organization (ILO), the ARIMA forecasting model, and the Pissarides matching model, to assess the structure and development dynamics of the regional labor market. Based on surveys conducted by the author in 2024, key issues such as unemployment, temporary employment, the operation of recruitment agencies, and factors of inclusivity were identified. The research substantiates the significant role of efficient labor resource utilization in promoting regional social equity and mitigating poverty. The paper also provides policy recommendations for enhancing labor market mechanisms in the region.

**Key words:** labor resources, poverty, inclusiveness, regional development, temporary employment, KILM.

**Аннотация:** В данной статье системно анализируются факторы, связанные с трудовыми ресурсами и их эффективным использованием для обеспечения социального развития, сокращения бедности и обеспечения инклюзивности в Хорезмской области. В исследовании изучается структура и динамика развития регионального рынка труда на основе международных методологий, в частности, показателей KILM Международной организации труда (МОТ), прогнозной модели ARIMA и модели сопоставления рынка труда Писсаридеса. На основе исследований, проведенных автором в 2024 году, были выявлены факторы безработицы, временной занятости, деятельности кадровых агентств и инклюзивности, а также обоснована важность эффективного использования трудовых ресурсов в Хорезмской области для обеспечения социального равенства и снижения бедности. В статье также разрабатываются предложения по политике.

**Ключевые слова:** трудовые ресурсы, бедность, инклюзивность, региональное развитие, временная занятость, KILM.

## KIRISH

Mintaqaviy rivojlanish bugungi global ijtimoiy-iqtisodiy muhitda dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizliklar, mehnat resurslarining nomutanosib taqsimoti, rasmiy va norasmiy bandlik, qashshoqlik ko'rsatkichlarining yuqoriligi hududiy siyosatni yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishlab chiqilgan "2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish strategiyasi" doirasida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada





ayniqsa hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish, qashshoqlikni tizimli ravishda qisqartirish, imkoniyati cheklangan guruhlar (ayollar, yoshlar, nogironlar va boshqalar) uchun inklyuziv ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish va barcha aholining iqtisodiy resurslarga teng kirishini ta'minlash muhim strategik vazifa sifatida e'tirof etilgan [2].

Ushbu yondashuv BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga, xususan, SDG-1 (Qashshoqlikka barham berish), SDG-10 (Tengsizlikni kamaytirish) va SDG-8 (Barqaror iqtisodiy o'sish va munosib mehnat) maqsadlariga hamohang bo'lib, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini global mezonlarga uyg'unlashtirish yo'lida muhim bosqich hisoblanadi [3]. Shu bilan birga, strategiyada mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirish maqsadida zamonaviy mehnat bozori infratuzilmasini yaratish, rekruterlik xizmatlarini joriy etish, yoshlar va ayollar bandligini qo'llab-quvvatlashga alohida urg'u berilgan.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri sanaladi. Aholi sonining yil sayin o'sib borayotgani, yoshlar ulushining nisbatan yuqoriligi va mehnatga layoqatli qatlamning yuqori ulushi viloyatning demografik jihatdan ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi [4,5]. Biroq bu salohiyat viloyatda yetarli darajadagi ish o'rinlari bilan ta'minlanmagan. Ayni paytda mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasining cheklanganligi, hududiy iqtisodiyotning sektorlararo nomutanosibligi va norasmiy mehnat bozorining yuqori darajada tarqalganligi sababli mavjud mehnat resurslari to'liq ishga solinmayapti.

Shuningdek, Xorazmda bandlik markazlarining salohiyati, rekruterlik xizmatlari va kasbga yo'naltirish tizimining sustligi bu resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa nafaqat ishchi kuchining to'liq ishlatilmasligiga, balki qashshoqlik darajasining nisbatan yuqoriligi, ayniqsa yoshlar va ayollar o'rtasidagi ishsizlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va yangi ish o'rinlarini yaratish masalasi ijtimoiy tenglik va hududiy barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xorazm viloyatida vaqtincha ish bilan bandlik mehnat bozori tarkibida yetakchi segmentlardan biriga aylangan. Aholining muayyan qismi, ayniqsa mehnat migratsiyasi bilan shug'ullana olmaydigan, malaka va tajribasi yetarli bo'lmagan qatlam vakillari mavsumiy va vaqtinchalik ish turlariga murojaat qilmoqda. Bu jarayon asosan rasmiy bandlik tizimidan chetda qolgan, nazoratdan xoli bo'lgan norasmiy mardikor bozorlari orqali amalga oshirilmoqda.

Bunday holat nafaqat mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faolligini to'liq ro'yxatga olishga xalaqit beradi, balki ularning mehnat huquqlari, ijtimoiy himoyasi va xavfsizlik kafolatlarini ta'minlashni ham qiyinlashtiradi. Norasmiy mehnat bozori sharoitida ishlayotgan fuqarolar, odatda, mehnat shartnomasi, sug'urta, pensiya va tibbiy xizmatlar kabi asosiy ijtimoiy kafolatlardan mahrum bo'lib qolmoqda. Bu esa ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yanada zaif qatlamga aylantiradi [6].

Ayniqsa, nogironlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarning ish topish imkoniyatlari ushbu norasmiy tuzilmalar ichida deyarli nazardan chetda qoladi. Shu bois, vaqtincha bandlikni rasmiylashtirish, uni nazoratga olish va inklyuziv mehnat siyosatini kuchaytirish mintaqaviy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqola Xorazm viloyati misolida hududiy ijtimoiy tenglik va qashshoqlikni yumshatishda mehnat resurslarining roli va holatini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Unda mavjud mehnat resurslarining miqdoriy va sifat jihatlari, ularning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi, vaqtincha va norasmiy bandlik shakllarining tarqalganligi, shuningdek, ijtimoiy himoya va inklyuziv xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganilgan. Tahlil natijalariga asosanib, muallif tomonidan mehnat resurslaridan yanada samarali foydalanish, hududiy bandlik infratuzilmasini takomillashtirish, rasmiy rekruter tizimini shakllantirish hamda iqtisodiy faol aholining qashshoqlikdan chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan amaliy va institutsional tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – Sh. Shodmonov (2019), H. Abulqosimov (2021) va R. Xojametov (2023) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mintaqaviy mehnat resurslarining iqtisodiy salohiyati, tarkibiy tuzilmasi va hududiy tafovutlari tizimli o'rganilgan. Jumladan, bu tadqiqotlarda mehnatga layoqatli aholining yoshi, jinsi, malakasi, urban va qishloq joylarga nisbatan taqsimoti asosida mehnat resurslari tasniflangan [7].

Shuningdek, ishsizlik darajasining demografik guruhlar bo'yicha farqlari, qashshoqlik darajasining mehnatga aloqador ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi, rasmiy va norasmiy bandlik ulushlari hamda ularning hududlar kesimidagi o'zgarishlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlar O'zbekistonda ijtimoiy tengsizlikni baholashda mehnat resurslari ko'rsatkichlarini asosiy diagnostik vosita sifatida qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [8].

Germaniya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi mamlakatlarning mehnat bozoridagi institutsional tajribalari vaqtincha bandlikni rasmiylashtirish va rekruter agentliklar orqali mehnat vositachiligini samarali tashkil etish borasida ilg'or model sifatida e'tirof etiladi [9].





Germaniyada “dual ta’lim tizimi” asosida yoshlarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalash va ularni tayyor ishchi kuchi sifatida rasmiylashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Janubiy Koreyada esa davlat tomonidan litsenziyalanadigan va qat'iy monitoring qilinadigan xususiy rekruter agentliklar vaqtincha va mavsumiy ishlar bozorining muhim komponenti hisoblanadi. Malayziya tajribasida esa, ayniqsa past malakali ishchilarning rasmiy mehnat bozoriga kirishida rekruterlik tizimlari orqali mehnat huquqlarining kafolatlanishi va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishi muhim omil sifatida qaraladi [10].

Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, vaqtincha bandlikni rasmiylashtirish va davlat-nazorati ostidagi mehnat vositachiligi tizimining mavjudligi nafaqat ishchi kuchining samarali taqsimlanishini, balki qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tomonidan ishlab chiqilgan KILM (Key Indicators of the Labour Market) modeli asosida hududiy mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Mazkur modelning tanlangan indikatorlari orqali, xususan, umumiy ishsizlik darajasi, vaqtincha ish bilan bandlik ulushi, ayollar bandlik darajasi, yoshlarning iqtisodiy faolligi hamda bandlikning sektorlar bo'yicha taqsimoti chuqur o'rganildi.

KILM indikatorlaridan foydalanish mehnat bozorida mavjud struktura va dinamikani aniqlash, norasmiy bandlik va ijtimoiy tengsizlik holatlarini tizimli baholash imkonini berdi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligining past darajada ekani, vaqtincha ishlovchilar ulushining yuqoriligi kabi muhim muammolar ushbu metodologik asos orqali aniq ifodalandi.

Mazkur model 20 dan ortiq global tan olingan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, ular ichida ushbu tadqiqot doirasida quyidagi indikatorlar tanlab olindi:

- Umumiy ishsizlik darajasi
- Vaqtincha ish bilan bandlik ulushi
- Ayollar bandligi darajasi
- Yoshlarning iqtisodiy faollik darajasi
- Norasmiy bandlik ulushi
- Ushbu indikatorlar yordamida quyidagi natijalarga erishamiz:

### 1-jadval. KILM Asosida Mehnat Bozori Ko'rsatkichlari (Xorazm, 2023)


| Ko'rsatkich                        | 2023-yil holati (%) |
|------------------------------------|---------------------|
| Umumiy ishsizlik darajasi          | 9.4                 |
| Ayollar ishsizligi                 | 12.1                |
| Yoshlar ishsizligi (16–24 yosh)    | 18.7                |
| Vaqtincha bandlik ulushi           | 28.3                |
| Norasmiy bandlik ulushi (taxminiy) | 35.0                |

Yuqoridagi 1-jadvalda 2023-yil holatiga ko'ra, Xorazm viloyatida ishsizlik darajasi 9,4% bo'lib, bu ko'rsatkich ayollar o'rtasida 12,1%, 16–24 yoshdagi yoshlar o'rtasida esa 18,7% ni tashkil etmoqda. Vaqtincha bandlik ulushi mehnatga layoqatli aholining 28,3 foiziga teng bo'lib, asosan qurilish, mavsumiy qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri kelmoqda.

KILM modeli doirasida ayollar bandligining pastligi, yoshlar iqtisodiy faolligining sustligi, rekruter xizmatlarining zaifligi va rasmiy bandlikka o'tishdagi to'siqlar asosiy strukturaviy muammolar sifatida namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, ILO (2020) va UNDP (2023) ma'lumotlariga tayangan holda, norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi iqtisodiy himoya va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida belgilandi.

Ushbu indikatorlar asosida KILM modeli orqali mintaqaviy mehnat bozori muammolari nafaqat statistik, balki institutsional nuqtai nazardan ham baholandi, bu esa maqolada ilgari surilgan tavsiyalarning asosiy daliliy poydevorini shakllantirdi.

Tadqiqotning empirik asoslarini mustahkamlash maqsadida bir nechta zamonaviy iqtisodiy-statistik modellar va daliliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Xususan, ARIMA(1,1,1) modeli orqali Xorazm viloyatida vaqtincha ish bilan band bo'lganlar sonining 2024–2027 yillarga mo'ljallangan o'sish trendi prognoz qilindi. Ushbu model yordamida vaqt qatorlaridagi avtokorrelyatsiyani bartaraf etish orqali ishonchli prognoz ko'rsatkichlariga erishildi. Model natijalari viloyatda vaqtinchalik bandlik salohiyatining yildan-yilga oshib borishini ko'rsatgan.



1-rasm. ARIMA(1,1,1) modeli asosida 2024–2027 yillar uchun vaqtincha bandlik prognozi (Xorazm viloyati misolida)

Tadqiqotda qo'llanilgan ARIMA(1,1,1) modeli asosida Xorazm viloyatida vaqtincha ish bilan band bo'lganlar soni yildan-yilga barqaror ortib borishi prognoz qilindi. Xususan, 2024-yilda bu ko'rsatkich 59 200 nafarni tashkil etsa, 2025-yilda 61 100 nafarga, 2026-yilda 63 400 nafarga, 2027-yilda esa 65 900 nafarga yetishi kutilmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida har yili vaqtincha bandlar soni o'rtacha 2 ming nafardan ortib borib, to'rt yillik davrda umumiy o'sish 6 700 nafarga yaqinlashmoqda. Bu esa mehnat bozorining vaqtincha bandlik segmenti kengayib borayotganini anglatadi. Har bir keyingi yilda vaqtincha bandlar sonining o'sish sur'ati biroz yuqorilarmoqda (2024–2025 yillarda 3,21%, 2025–2026 yillarda 3,76%, 2026–2027 yillarda esa 3,94%). Bu mehnat bozori ehtiyojlari bilan vaqtincha ish o'rinlari o'rtasida muvofiqlik ortib borayotganini bildiradi. Prognoz qilingan o'sish ko'rsatkichlari ayniqsa norasmiy mardikorlik, mavsumiy qurilish va qishloq xo'jaligi ishlarining kengayishini ko'rsatmoqda. Agar bu ishlar rasmiylashtirilmasa, vaqtincha bandlik norasmiy mehnat segmentining o'sishiga olib keladi. Rasmiy mehnat shartnomalarisiz ishlayotgan vaqtincha bandlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy himoya tizimidan ham chetda qolmoqda. Bu esa pensiya ta'minoti, sog'liqni saqlash va huquqiy himoya kabi sohalarida zaiflikni kuchaytiradi. Ushbu dinamikaga asoslanib, davlat darajasida vaqtincha bandlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish, rekruter xizmatlarini rasmiylashtirish va mehnat bozori vositachiligini optimallashtirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqotda hududiy empirik asoslarni chuqur o'rganish maqsadida 2024-yilning mart–iyun oylarida Xorazm viloyatining Urganch, Xiva va Yangibozor tumanlarida joylashgan norasmiy mardikor bozorlarida so'rovnoma va yarim strukturalangan intervyular tashkil etildi. Mazkur maydon tadqiqotlariga jami 220 nafar ish izlayotgan ishsiz fuqaro jalb etildi. So'rovnomalar Likert shkalasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda ishsizlarning rasmiy bandlik tizimiga nisbatan munosabati, ularning rekruter agentliklari faoliyati va mavjudligi haqidagi xabardorligi, vositachilik xizmatlarining sifati, hamda ayollar, yoshlar va nogironlar uchun yaratilgan ishga joylashish imkoniyatlari o'rganildi.


So'rovnomalar natijasida aholining rasmiy mehnat bozori institutlariga nisbatan ishonch darajasi pastligi, mavjud bandlik xizmatlarining yetarli targ'ib qilinmagani, shuningdek, ayrim ijtimoiy guruhlar – xususan, nogironlar va ayollar uchun moslashtirilgan bandlik imkoniyatlarining cheklangani aniqlangan. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida rekruter agentliklari faoliyatini hududiy mehnat muvofiqligini oshirishdagi potensial rolini tahlil qilishga imkon yaratildi.

Shuningdek, hududiy mehnat bozori samaradorligini chuqur tahlil qilish va mehnat resurslari harakatining tarkibiy muvozanatini aniqlash maqsadida Pissarides Matching modeli qo'llanildi. Mazkur model mehnat bozori ishtirokchilari — ya'ni ish qidiruvchilar va bo'sh ish o'rinlari o'rtasidagi muvofiqlik (matching efficiency) darajasini o'lchash imkonini beradi. Model doirasida mehnat bozori infratuzilmasi, rekruter xizmatlarining mavjudligi, axborot oqimlarining yetarli yoki yetarli emasligi, shuningdek, friksion omillar (ya'ni vaqtinchalik nomuvofiqlik, qidiruv xarajatlari, joylashuvdagi farqlar) baholandi.

Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, Xorazm viloyatida ishchi kuchi bilan ish o'rinlari o'rtasidagi muvofiqlik darajasi past bo'lib, bu holat bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, rekruter agentliklarining amalda yo'qligi yoki ularning rasmiy tizimdan ajralib faoliyat yuritayotgani sababli, mehnat vositachiligi tizimi yetarli



darajada samarali emas. Ikkinchidan, norasmiy mardikor bozorlarida shakllangan bandlik mexanizmlari ko'plab ishsizlarni institutsional tizimlardan uzoqlashtirib, ularni xavfli va huquqsiz mehnat sharoitlariga yo'naltirmoqda. Uchinchidan, mavjud ish o'rinlari va ishsizlarning malaka darajasi, hududiy joylashuvi yoki ish sharoitlari o'rtasidagi farqlar friksion to'siqlarni kuchaytirmoqda.



2-rasm

Yuqoridagi 2-rasm Pissarides Matching modeli asosida qurilgan bo'lib, u ishsizlar soni (U) ortishi bilan mehnat bozori mosligi (M) qanday o'sishini ko'rsatadi.

3-Grafikdan ko'rinib turibdiki, ishsizlar soni ma'lum darajagacha oshgani sari real ishga joylashish holatlari ham ortadi, biroq bu o'sish tobora sekinlashadi (ya'ni kamayuvchi gradiyent). Bu esa mehnat bozori imkoniyatlari va resurslarining chegaralanganligini anglatadi. Rekruter agentliklari va rasmiy axborot platformalari bo'lmasa, ishsizlik yuqori bo'lsa ham, bo'sh ish o'rinlari samarali to'ldirilmaydi. Pissarides Matching modelining natijalari ushbu strukturaviy muammolarni aniqlashga xizmat qilgan bo'lib, viloyat mehnat bozorida samarali matching tizimlarini joriy etish, rekruter xizmatlarini qonuniylashtirish va texnologik vositalar bilan quvvatlash zarurligini asoslab berdi.

Pissarides Matching modeli: texnik ko'rinish va amaliy qo'llanilishi

Pissarides (2000) tomonidan ishlab chiqilgan mehnat bozori muvofiqlik modeli (Matching Function modeli) mehnat bozori ishtirokchilari — ish qidiruvchilar va bo'sh ish o'rinlari o'rtasida qanday qilib moslik (matching) yuz berishini matematik shaklda ifodalaydi. Model quyidagi umumiy tenglama asosida ifodalanadi:

$$M_t = A \cdot U_t^\alpha \cdot V_t^{1-\alpha}$$

Bu yerda:

$M_t$  — t davrda sodir bo'lgan real mosliklar (ya'ni ishga joylashishlar) soni

$U_t$  — ishsizlar soni (ya'ni ish qidiruvchilar)

$V_t$  — bo'sh ish o'rinlari soni

A — matching samaradorlik koeffitsienti (institutsional va axborot oqimlari darajasiga bog'liq)

$\alpha$  — elastiklik koeffitsienti (odatda  $0 < \alpha < 1$ )

2024-yilda Xorazm viloyatida ishsizlik darajasi yuqori bo'lganiga qaramay, bo'sh ish o'rinlari sonining mavjudligi va ular haqidagi ma'lumotlarning aholiga yetib bormasligi sababli muvofiqlik darajasi (matching



efficiency) past bo'lib chiqdi. Modelga kiruvchi ko'rsatkichlar (U va V) viloyat statistika boshqarmasi va so'rovnoma natijalari asosida shakllantirildi. Tahlil natijalariga ko'ra:

A koeffitsiyenti qiymati past bo'lib, bu institutsional vositachilikning yanada rivojlantirishligini bildiradi. Moslik elastikligi ( $\alpha$ ) esa taxminan 0,6 atrofida bo'lib, bu bo'sh ish o'rinlariga nisbatan talab kuchliroq ekanini anglatadi.

Model xulosalariga ko'ra, ish beruvchi va ish izlovchi o'rtasida samarali axborot almashinuvi mavjud emasligi, rekruter agentliklarining yetishmasligi (yoki mavjud bo'lsa ham, ishonchli emasligi) sababli vositachilik funktsiyasi to'laqonli ishlamasligi, ko'plab ishsizlar malakasiz, bo'sh ish o'rinlari esa malakali ishchi kuchini talab qilayotganligi — bu strukturaviy nomuvofiqlikdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra ish topish va bo'sh o'rinlarni to'ldirish koeffitsienti (matching rate) juda past bo'lib, mehnat bozori friktsiyalari kuchli ekanligi aniqlandi.

Pissarides modeli asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Rasmiy rekruter agentliklar infratuzilmasini yaratish va ularni ishsizlar bilan tizimli bog'lash.
- Bo'sh ish o'rinlari axborot bazasini shakllantirish va uni onlayn integratsiyalash.
- Ishsizlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun.

Ma'lumotlar manbasi: Xorazm viloyati Bandlik boshqarmasi, Davlat statistika qo'mitasi, UNDP (2023), ILO va muallif tomonidan yig'ilgan so'rovnomalalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida mehnat resurslari hajman yetarli bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi past darajada qolmoqda. Aholining muhim qismi aynan vaqtincha va norasmiy ish shakllariga jalb etilgan bo'lib, bu holat viloyatda rasmiy mehnat vositachiligi xizmatlari va bandlik infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganidan dalolat beradi. Xususan, rasmiy rekruter agentliklarining yo'qligi yoki ularning huquqiy-asosli faoliyat yuritmayotgani sababli, ishsizlar ko'pincha norasmiy mardikor bozorlariga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda. Bu esa ularga doimiy ish, barqaror daromad va ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish imkoniyatini bermaydi. Ayniqsa, ayollar va nogironlar kabi zaif ijtimoiy guruhlar uchun inklyuziv xizmatlar infratuzilmasining yo'qligi ularning mehnat bozoriga integratsiyasini murakkablashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) 181-sonli Konvensiyasi (1997) talablariga murojaat qilish muhimdir. Mazkur konvensiyaga ko'ra, ishga joylashtiruvchi xususiy agentliklar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- Litsenziyalangan bo'lishi va davlat tomonidan monitoring qilinishi;
- Mehnat bozori ishtirokchilari o'rtasida vositachilikni shaffof va teng asosda amalga oshirishi;
- Xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish;
- Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va inklyuziv yondashuvni ta'minlanishini rag'batlantirish.

Afsuski, Xorazm viloyatida bu tamoyillarni amalda joriy etuvchi tizimli model hali shakllanmagan. Bu esa viloyatdagi yuqori ishsizlik darajasi, vaqtinchalik bandlikning keng tarqalishi va rasmiy mehnat institutlariga bo'lgan ishonchning sustligiga olib kelmoqda.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali ijtimoiy tenglik va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar:

- ILO 181-Konvensiyasi asosida rekruter agentliklar faoliyatini tartibga solish, ularni litsenziyalash va onlayn platformalarda ro'yxatga olish tizimini joriy etish.
- Ayollar, yoshlar va nogironlar uchun maxsus bandlik dasturlari va moslashtirilgan ish o'rinlari infratuzilmasini yaratish.
- Ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish uchun regional mehnat bozoriga oid ochiq elektron platformalarni ishlab chiqish.
- Norasmiy mehnat shakllarini rasmiylashtirish orqali ijtimoiy himoyaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Rasmiy vositachilik tizimlariga subsidiya, texnik yordam va mahalliy hokimiyatlar bilan integratsiyani kuchaytirish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehnat resurslari har qanday hududiy rivojlanish strategiyasining asosiy omillaridan biri bo'lib, u ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, qashshoqlikni yumshatish hamda inklyuzivlikni kuchaytirishda bevosita rol o'ynaydi. Xususan, Xorazm viloyatida demografik salohiyat yuqori bo'lishiga qaramay, mehnat bozoridagi strukturaviy nomutanosibliklar, norasmiy bandlikning keng tarqalganligi va rasmiy vositachilik tizimlarining zaifligi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirayotgan asosiy omillardan biridir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vaqtincha va norasmiy bandlikning ortib borayotgani viloyatda rasmiy rekruter xizmatlariga va institutsional vositachilik tizimlariga ehtiyoj nihoyatda kuchli ekanini tasdiqlaydi. Mehnat bozori samaradorligini oshirish uchun Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) 181-sonli Konvensiyasi tamoyillari asosida ishga joylashtiruvchi agentliklarni rivojlantirish, aholining mehnatga layoqatli qatlamini malaka va qayta tayyorlash dasturlari bilan qamrab olish, shuningdek, ayollar va nogironlar uchun moslashtirilgan xizmatlar infratuzilmasini shakllantirish zarur.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shodmonov Sh.Sh. (2019). "Hududiy iqtisodiyot asoslari", Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-60-son, 2022-yil 28-yanvar – "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"
3. United Nations Development Programme (UNDP Uzbekistan). "SDG Baseline Report for Uzbekistan", 2020
4. Statistika agentligi ma'lumotlari – "Hududiy bandlik holati" bo'yicha 2023-yilgi byulletendan
5. Abulqosimov H. (2021). "Mehnat iqtisodiyoti asoslari", Toshkent
6. International Labour Organization (ILO). (2021). "Informal Employment in Uzbekistan: Policy Note".
7. Xo'jametov R. (2023). "Ijtimoiy himoya va bandlik siyosatlar", Urganch: Akademnashr.
8. Shodmonov, Sh. (2019). Hududiy iqtisodiyot asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
9. Abulqosimov, H. (2021). Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent: "Fan va texnologiya".
10. OECD. (2020). Vocational education and training in Germany: Strengths, challenges and recommendations. OECD Reviews of Vocational Education and Training.
11. International Labour Organization (ILO). (2019). Private Employment Agencies and Labour Market Policies: The Experience of Korea. Geneva: ILO Publications.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---